



CHANGES IN AGRICULTURAL INFRASTRUCTURE IN SURKHANDARYA AND KASHKADARYA REGIONS (2000–2010)

Yakitjan Buvabayevna Kadirova

Independent Researcher, Termez State University

PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor

xqodirova@bk.ru

Termez, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: farm, peasant household, agricultural infrastructure, agrarian reforms, Surkhandarya, Kashkadarya.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article analyzes the changes in agricultural infrastructure in Surkhandarya and Kashkadarya regions during the period from 2000 to 2010. It is noted that during this period, the number of farms and peasant households, land areas, and the volume of produced crops and livestock products increased in these regions. Moreover, the efficiency of agriculture improved due to the provision of material and technical resources to these farms. The article also analyzes statistical data on agrarian reforms implemented in the regions, the development of farms, land distribution, crop yields, and the agricultural product processing system.

SURXONDARYO VA QASHQADARYO VILOYATLARI QISHLOQ XO‘JALIGI INFRATUZILMASIDAGI O‘ZGARISHLAR (2000–2010 YILLAR)

Yakitjan Buvabayevna Kadirova

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

xqodirova@bk.ru

Termiz, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Fermer xo‘jaligi, dehqon xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi, agrar islohotlar, Surxondaryo, Qashqadaryo.

Annotasiya: Ushbu maqolada Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida 2000–2010 yillar davomida qishloq xo‘jaligi infratuzilmasida ro‘y bergan o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Mazkur davrda viloyatlarda fermer va dehqon xo‘jaliklarining soni, yer maydonlari,

ishlab chiqarilgan ekin va chorva mahsulotlari hajmi ortganligi, shuningdek, ularning moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanishi natijasida qishloq xo'jaligi sohasining samaradorligi oshgani ko'rsatib o'tiladi. Maqolada viloyatlarda amalga oshirilgan agrar islohotlar, fermer xo'jaliklari rivoji, er taqsimoti, hosildorlik va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tizimi bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlil qilinadi.

ИЗМЕНЕНИЯ В СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ИНФРАСТРУКТУРЕ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ И КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТЕЙ (2000–2010 ГГ.)

Яқитдўжан Бувабаевна Кадырова

Независимый исследователь, Государственный университет Термеза

Кандидат педагогических наук (PhD), доцент

xqodirova@bk.ru

Термез, Узбекиста

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: фермерское хозяйство, крестьянское хозяйство, сельскохозяйственная инфраструктура, аграрные реформы, Сурхандарьинская область, Кашкадарьинская область.

Аннотация: В данной статье анализируются изменения в сельскохозяйственной инфраструктуре Сурхандарьинской и Кашкадарьинской областей в период с 2000 по 2010 годы. Отмечается, что за указанный период в областях увеличилось количество фермерских и крестьянских хозяйств, площади земель, объемы производимых сельскохозяйственных и скотоводческих продуктов, а также повышение эффективности сельского хозяйства произошло благодаря обеспеченности хозяйств материально-техническими ресурсами. В статье анализируются статистические данные по проведенным в областях аграрным реформам, развитию фермерских хозяйств, распределению земель, урожайности и системе переработки сельскохозяйственной продукции.

Kirish. 2000–2010 yillar davomida Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida qishloq xo'jaligi infratuzilmasida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Ushbu davrda fermerlik harakati viloyatlar iqtisodiyotida muhim o'rin egalladi va qishloq xo'jaligida erkin tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qildi. Surxondaryo viloyatida va Qashqadaryo viloyatida yangi fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi, ularning yer va moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanishi,

shuningdek, ishlab chiqarish hajmi va samaradorligining oshishi agrar sohadagi islohotlarning ijobiy natijalaridan biri bo'ldi.

2000-yildan boshlab viloyatlarda fermer va dehqon xo'jaliklari soni, ularga ajratilgan yer maydonlari va yetishtirilgan asosiy ekinlar hajmi ortdi. Shu bilan birga, fermer xo'jaliklarining mol-mulk bilan ta'minlanishi, chorvachilik va poliz ekinlari ishlab chiqarishidagi o'sish, shuningdek, mahsulotlarni qayta ishlash va sotish bo'yicha tuzilgan shartnomalar agrar infratuzilmaning mustahkamlanishiga yordam berdi.

Muhokama. 2000–2010 yillar davomida Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida qishloq xo'jaligi infratuzilmasida amalga oshirilgan o'zgarishlar natijalari ko'plab ijobiy tendensiyalarni ko'rsatadi. Avvalo, fermer va dehqon xo'jaliklarining soni sezilarli darajada oshganligi, yer maydonlarining kengayishi va ularning samarali ishlatilishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'sishiga turtki bergan. Fermerlik harakati Surxondaryoga nisbatan Qashqadaryoda biroz jonliroq kechdi. Viloyatda 2000-yilda fermerlar soni 1700 tani tashkil qildi. O'sha yili iyun oyigacha viloyatda 1040 ta yangi fermer xo'jaliklari tashkil etildi, ushbu xo'jaliklar 20082 kishini ish bilan ta'minladi[1]. Viloyatdagi fermer xo'jaliklarning umumiy yer maydoni 82,2 ming gektardan ortiq edi. Viloyatda 2001-yilga qadar 3510 ta dehqon va fermer xo'jaliklari ro'yxatdan o'tgan. Shulardan 170 tasi yuridik maqomga ega bo'lib qolganlari esa paychilik, jismoniy shaxs va oilaviy pudrat shaklida faoliyat ko'rsatdi[2].

2000-yilda Surxondaryo viloyatida 3017 ta fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatdi, viloyatdagi kichik va o'rta biznes subyektlari bo'lgan fermer xo'jaliklari va huquqiy shaxs maqomiga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklarining soni esa 413 taga ko'paydi. 2000-yilda viloyatda 164 ming 520 ta dehqon xo'jaligi faoliyat yuritdi, shulardan 325 tasi huquqiy shaxs maqomiga ega bo'ldi. 2000-yili o'rtacha har bir dehqon xo'jaligiga to'g'ri keladigan yer maydoni 0,17 gektarni tashkil etdi. 2000-yili viloyatdagi fermer xo'jaliklar 31153 gektar yerga boshqoli don, 42000 gektar yerga paxta[6:15], 113 gektarga kartoshka, 323 gektarga sabzavot, 107 gektarga poliz, 543 gektar maydonga ozuqa ekinlari ekdi. Viloyatdagi fermer xo'jaliklar qaramog'idagi chorva mollarining soni ancha ko'paydi. Jumladan, 2000-yilning 1-iyun holatiga ko'ra 1999-yil 1-iyun holatiga nisbatan qoramollar soni 125,5 foiz, jumladan, sigirlar 125 foiz, parrandalar 202 foizga ko'paydi[3]. Dehqon va fermer xo'jaliklarini ikki tomonlama shartnomalar asosida moddiy-texnika resurslari, mineral o'g'itlar va yoqilg'i moylash materiallari bilan ta'minlash bo'yicha ham amaliy ishlar olib borildi. 2000-yilda 1550 ta fermer xo'jaliklar 112058 tonna paxtaga, 995 ta fermer xo'jaliklari 24108 tonna donga, 685 ta fermer xo'jaliklari 79,6 tonna pillaga, 43 ta fermer xo'jaliklari 107 tonna go'shtga, 83 ta fermer xo'jaliklari 2470 tonna sutga, 35 ta fermer xo'jaliklari 476 tonna sabzavotlarni to'g'ridan-to'g'ri zavodlarga topshirish uchun «O'zdonmahsulot» tashkilotlari va boshqa tayyorlov idoralari bilan shartnomalar tuzdi. Shuningdek, neftbazalar bilan

1150 ta fermer, mineral o'g'itlar olish uchun 1225 ta fermer, MTPlar bilan 1097 ta fermer ikki tomonlama shartnomalar tuzdi. Viloyatda 2000-yilda 164,520 shaxsiy yordamchi xo'jaliklar dehqon xo'jaliklar sifatida qayta ro'yxatga olindilar, jumladan, 2000-yilda 411 ta dehqon xo'jaligi tashkil qililib, fermer xo'jaliklariga MTP tashkilotlari 179 mln so'mlik xizmat ko'rsatdilar. «Agrokimyota'minot» tashkilotlari tomonidan esa 6325 tonna har xil mineral o'g'itlar fermer va dehqon xo'jaliklariga 720 tonna benzin, 3200 tonna dizel yoqilg'isi yetkazib berdi[6:3-4].

Surxondaryo viloyatida fermer xo'jaliklarini rivojlantirish uchun 2000-yilning 6 oyi davomida 281 ta fermer xo'jaligiga 457960 ming so'm kredit mablag'lari berildi.

Shu jumladan, bankning o'z mablag'i hisobidan 370000 mln so'm, nobyudjet mablag'lari hisobidan esa 87960 mln so'mlik kredit qishloq xo'jaligiga ajratildi. 2001-yili Surxondaryo viloyatida yangidan tashkil etilgan fermer xo'jaliklariga xizmat qilish uchun va ikkita mini bank tashkil etildi.

Viloyat bo'yicha 2001-yili 2380 ta fermer xo'jalik bo'lib, ularga 45 ming gektardan ortiq yer ajratildi. Natijada fermer xo'jaliklari soni 680 taga ko'paydi. Ularga qo'shimcha tarzda 18 ming 500 gektar yer berildi. Yerning haqiqiy egalari berilishi natijasida shu yili 14 ming 660 ta ish o'rni tashkil etildi[4:214].

2001-yil fermerlar uyushmasiga aylantirilgan viloyatning Qarshi tumanidagi "Xonobod", "Yangiobod", Koson tumanlaridagi "Andibozor", "Surxon", "Shirintepa", Qamashi tumanidagi "Qorabog'", Muborak tumanidagi "Bekki Saidov" nomli, "Turkiston", Nishon tumanidagi "Xamza" nomli "Turkmaniston", Kasbi tumanidagi "Beruniy" nomli, Mirishkor tumanidagi "Ko'xna Fazli", R.G'oyipov nomli, Chiroqchi tumanidagi "Navro'z" jami 14 ta xo'jalik hisobidagi 1494 bosh qoramol 92,6 mln. so'mga, 1912 bosh mayda mol 34,8 mln. so'mga, chorva komplekslari 75,8 mln.so'mga sotildi[2].

Fermer xo'jaliklarini yanada yuksaltirishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-yanvardagi «Qishloq xo'jaligi korxonalarini fermer xo'jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risi»dagi 8-sonli qarori muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, 2003-yilning 24-mart kuni O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining "Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida" gi farmoni e'lon qilindi va ushbu farmonga muvofiq fermerlarga yer maydonlari 50 yillik muddatda meros qoldirish huquqi bilan ijaraga berilishi belgilandi. Surxondaryo viloyatida ham qishloq xo'jalik sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida O'zbekistonning boshqa hududlari kabi agrar masalada yangi boshqaruv tizimi shakllanib, yerga egalik qilish tizimida jahonning ilg'or tajribalardan foydalanish imkoniyati yuzaga keldi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2003-yil 30-oktyabrda «2004-2006-yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 476-sonli[5] qarorini qabul qildi.

Fermer xo‘jaliklarining tashkil topish va uning moddiy texnik jihatdan mustahkamlanishi tufayli aholini qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan ta‘minlash borasida fermer xo‘jaliklarining ulushi ancha ortib bordi.

Fermer va shirkat xo‘jaliklari bir vaqtda faoliyat yuritgan davrda fermer xo‘jaliklaridagi mehnat va mahsulot yetishtirishda unumdorligining shirkat xo‘jaligiga nisbatan ancha o‘shirishga erishganligi quyidagi raqamlardan bilish mumkin. Masalan, Surxondaryo viloyat shirkat xo‘jaliklari 2001-yilda 4095 tonna poliz mahsulotlari yetishtirgan bo‘lsa, 2005-yilda kelib 63548 tonnaga pasaydi.

Fermer xo‘jaliklari 2001-yilda 3211 tonna poliz mahsulotlari yetishtirgan bo‘lsalar, 2005-yilda kelib bu raqam 3788 tonnaga oshgan. Shirkat xo‘jaliklari 2001 il viloyatda 48941 tonna ho‘l meva yetishtirgan bo‘lsa, 2005-yilga kelib 44814 tonnaga kamaygan. Fermer xo‘jaliklarida esa 2001-yil 14489 tonna ho‘l meva yetishtirgan bo‘lsalar, 2005-yilga kelib 16632 tonnadan oshgan[6:48].

2003-yilda Surxondaryo viloyatidagi shirkat xo‘jaliklarida 522857 tonna don mahsulotlari yetishtirilgan bo‘lsa, fermer xo‘jaliklarida bu ko‘rsatkich 422946 tonnani tashkil qildi. 2005-yilda shirkat xo‘jaliklari 571625 tonna don, 86672 tonna kartoshka, 235892 tonna sabzavot, 36548 tonna poliz mahsulotlarini yetkazib berishgan bo‘lsalar, fermer xo‘jaliklari 466819 tonna don, 659 tonna kartoshka, 11029 tonna sabzavot, 3788 tonna poliz mahsulotlarini yetishtirishdi[6:32,52].

Fermerlik harakatiga berilayotgan e‘tibor hamda ushbu xo‘jaliklar tomonidan erishayotgan yutuqlar viloyatda fermer xo‘jaliklarini tashkil etish sur‘atlarini tezlashtirdi. Agar, 2001-yili Surxondaryo viloyatida 3438 ta fermer xo‘jaligi tashkil etilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2005-yilda kelib 6677 taga yetdi. Shu davrda viloyatdagi fermer xo‘jaliklarining yer maydonlari ham ancha kengaydi, jumladan fermer xo‘jaliklari ixtiyorida 2001-yilda 69827 gektar yer bo‘lgan bo‘lsa bu ko‘rsatkich 2005-yilga kelib 256865 gektarga yetdi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, viloyatda 2005-yilda fermer xo‘jaliklarining jami sug‘oriladigan ekin maydonlari 135516 gektarni tashkil etib, shundan 57034 gektariga donli ekinlar, 72141 gektar yerga esa paxta ekilardi[7].

Shu davrda Surxondaryo viloyatida tayyorlanayotgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini aholi jon boshiga o‘rtacha taqsimlaganda fermerlarning ulushi viloyat dehqon xo‘jaliklarida tayyorlangan mahsulotlarning jami hajmi bilan qiyoslanganda viloyat bo‘yicha 2007-yilda 37,3, 2008-yilda 34,8, 2009-yilda 37,2, 2010-yilda 35,2, 2011-yilda 34,5 foizni tashkil qildi.

Ko‘rinib turibdiki o‘sha davrda fermer xo‘jaliklarga unumsiz yerlardan yer berilishi hamda ularning moddiy texnik ta‘minotining yaxshi shakllanmaganligi tufayli yetishtirilgan hosil

koʻzlangan darajada boʻlmadi. 2009-yilda janubiy hududlarda ekin ekiladigan yerlarning holatini aniqlash maqsadida oʻtkazilgan tahlillar shuni koʻrsatadi, janubiy viloyatlarda yerning meliorativ holatini yaxshilash ishlari toʻgʻri tashkil etilmagan. Bundan tashqari agroservis xizmatlarining yaxshi tashkil etilmaganligi sababli qishloq xoʻjaligida islohotlarni amalga oshirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish borasidagi ishlar toʻliq oʻz samarasini bermadi.

2009-yil Qashqadaryo viloyatining qator tumanlarida chorvachilik sohasida tashkil etilgan fermer xoʻjaliklarida rentabellik bir muncha oʻsdi, jumladan, Gʻuzor tumanidagi sobiq “Navroʻz”, Koson tumanidagi “Chiroqchi”, “Maydayobi”, “Jargʻum”, Mirishkor tumanidagi, “S.Murodov” nomli, “Chandir”, “Maxtumquli” nomli, “Turkiston” xoʻjaliklaridagi 1040 bosh qoramolning bir boshi oʻrtacha 1 mln 800 ming soʻm miqdorida sotildi[7].

2010-yilda viloyatdagi 5986 ta fermer xoʻjaligidan 299 tasi 50 mln. soʻmdan yuqori, 2398 tasi 50 mln.soʻmgacha, 2887 tasi 20 mln.soʻmgacha sof foyda oldi. Shu yili fermer xoʻjaliklari oʻz foydasi hisobidan 4 ta K-700, 42 tasi T-4A haydov traktorlari, “Oʻzqishloqxoʻjalikmashlizing” kompaniyasi orqali 57 ta TTZ-80 va 17 ta traktor tirkamalarini oldi[8].

Qishloq xoʻjalik mahsulotlari, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda dehqon xoʻjaliklarining mavqeyi ortib bordi. Chunonchi, dehqon xoʻjaliklari 2010-yilga kelib respublika qishloq xoʻjaligi yalpi mahsulotning 66%ini bergan boʻlsa, bu raqam 2014-yil yanvarida faqat Surxondaryo viloyati boʻyicha 86,2 %ni tashkil qildi[9:15].

Xulosa. 2000–2010-yillar davomida Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida qishloq xoʻjaligi infratuzilmasida amalga oshirilgan oʻzgarishlar viloyatlarning agrar salohiyatini sezilarli darajada oshirdi. Fermer va dehqon xoʻjaliklarining soni, yer maydonlari va ularning samarali ishlatilishi ortishi, shuningdek, moddiy-texnika va moliyaviy resurslar bilan taʼminlanishi mahsulot yetishtirishning oʻsishiga olib keldi. Natijada, viloyatlarda qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish hajmi va fermer xoʻjaliklarining iqtisodiy samaradorligi ortdi.

Umuman olganda, ushbu davrda qishloq xoʻjaligi infratuzilmasida erishilgan natijalar viloyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatdi va kelgusida agrar sektorni yanada rivojlantirish uchun asos yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti devoni arxivining Qashqadaryo viloyati filiali joriy arxivi. 829-jamgʻarma. 10-roʻyxat. 94-yigʻma jild. 45-varaq.. Yana qarang: Qarshiyev Sh. Fermer xoʻjaliklarida iqtisodiy munosabatlarning takomillashtirilishi (Qashqadaryo misolida) Iqtisodiyot fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent, 1998. – B. 56.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi maʼlumotlari.

3. Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxivi, 2-bayonnoma, 1-hujjat, 2001-yil 3-fevral, 8 bet.
4. Karimov I. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – B. 214.
5. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2003-yil, 20-son, 200-modda.
6. Surxondaryo viloyat hokimligi Iqtisodiyot va statistika bosh boshqarmasi. Ikkinchi kitob. –Termiz, 2010. – B. 3, 4, 15, 32, 48, 52.
7. Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxivi. 6-bayonnoma, 3-hujjat, 2010-yil, 10-iyun. – B. 43.
8. Tadqiqotchining “Dala yozuvlari” daftari (2-daftar). – B. 1-2.
9. Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari. –Termiz, 2015. – B. 15.